IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO‘YICHA MILLIY INSTITUTLAR

Jumamuratova Mexribonu Bayrambayevna
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar Fakulteti
Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: mexribonujumamuratova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23858545

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etilishini ta’minlash sohasida faoliyat yuritayotgan milliy institutlar — xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Bolalar ombudsmani, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Biznes ombudsman kabi tashkilotlarning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari va amaliy faoliyati tahlil qilinadi.Ularning mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmidagi o‘rni va samarasi, xalqaro standartlarga muvofiqligi va fuqarolar bilan real ishlash darajasi atroflicha o‘rganiladi.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston ,milliy institutlar, inson huquqlari, Ombudsman,Milliy markaz, Parij tamoyillari,huquqiy himoya, xalqaro standartlar, huquqiy mexanizm, samaradorlik.

NATIONAL INSTITUTIONS FOR THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the legal status, core functions, and practical activities of national institutions engaged in protecting human rights and ensuring compliance with them. In particular, it examines the Authorized Representative of the Oliy Majlis for Human Rights (Ombudsman), the National Human Rights Centre of the Republic of Uzbekistan, the Children’s Ombudsman, and the Business Ombudsman under the President of the Republic of Uzbekistan. The article thoroughly studies their role and effectiveness within the country’s human rights protection mechanism, their compliance with international standards, and the extent of their real engagement with citizens.
Keywords: Uzbekistan, national institutions, human rights, Ombudsman, National Centre, Paris Principles, legal protection, international standards, legal mechanism, effectiveness.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИНСТИТУТЫ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В настоящей статье анализируются правовой статус, основные задачи и практическая деятельность национальных институтов, работающих в сфере защиты прав человека и обеспечения их соблюдения. В частности, рассматриваются Уполномоченный Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсман), Национальный центр Республики

Узбекистан по правам человека, Детский омбудсман и Бизнес-омбудсман при Президенте Республики Узбекистан. В статье всесторонне изучаются их роль и эффективность в механизме защиты прав человека в стране, соответствие международным стандартам, а также уровень реальной работы с гражданами.

Ключевые слова: Узбекистан, национальные институты, права человека, Омбудсман, Национальный центр, Парижские принципы, правовая защита, международные стандарты, правовой механизм, эффективность.

“Insonning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etiladigan fundamental huquq va erkinliklarining e’lon qilinishi hamda amalga oshirilishi muammolari ko‘pgina umumsiyosiy yo‘nalishdagi va sof yuridik savollarga javob topib berishi kerak bo‘lgan maxsus tadqiqot mavzusidir” [1]

B.N.Topornin,akademik

KIRISH

Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning, har qanday fuqarolik jamiyati sari ildam qadam tashlayotgan davlatning asosiy negizidir.O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligining ilk kunlaridanoq inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ularni amalga oshirishda munosib huquqiy mexanizm yaratish borasida izchil islohotlar yo‘lini tanladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash har bir davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu vazifani faqat sud va ijro hokimiyati organlari orqali to‘liq bajarib bo‘lmaydi, shu sababli, ularni to‘ldiruvchi davlat organlaridan mustaqil milliy institutlar tashkil etilmoqda.

Inson huquqlari deganda davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat va individ o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi.Bunday munosabatlarning buzilishi, ya’ni inson huquqlariga daxldor bo‘lgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to‘sqinlik qilinishi, yoki bo‘lmasa, davlat tomonidan o‘zining xalqaro majburiyatlarini bajarilmasligi, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishiga olib keladi.Mansabdor shaxslar , ayniqsa, sud va huquqni muhofaza qilish organlarining vakillari odil sudlovni yoki huquqni qo‘llashni amalga oshirish vaqtida, ba’zan o‘z vazifalarini suiiste’mol qiladilar yoki o‘z vakolat doiralaridan chiqadilar va oqibatda muayyan shaxslar yoki shaxslar guruhining huquqlari va erkinliklarini poymol etadilar.[2]

[1] Топорнин Б.Н. Права человека и разделение властей //Права человека: время трудных решений. М., 1991. С.28.
[2] Inson huquqlari:darslik/A.R.Mo‘minov. M.A.Tillabayev;mas’ul muharrir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.:Adolat.2013. – 10 b.

ASOSIY QISM

So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning suddan boshqa shakllariga xalqaro darajada ham, milliy darajada ham e’tibor ortib bormoqda.Dastlab bunday institutlarga 1946-yili BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining ikkinchi sessiyasida e’tibor berilgan.Mazkur sessiyada Inson huquqlari bo‘yicha komissiya faoliyatini rivojlantirishda hamkorlik qilish uchun a’zo-davlatlarga axborot guruhlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy qo‘mitalar tuzish tavsiya etilgan.[3]

XX asrning 60-70-yillarida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatining samarasini oshirish yo‘llarini qidirish ko‘plab bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan. 1978-yili BMT Inson huquqlari komissiyasi inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi milliy institutlar bo‘yicha seminar o‘tkazgan.

XX asrning 80-yillarida ham BMT mazkur masalaga e’tibor qaratib keldi va Bosh Assambleyaga Bosh kotib tomonidan turkum ma’ruzalar tayyorlab taqdim qilingan. 1991 yili 7–9 oktyabrda Parijda o‘tkazilgan inson huquqlarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish bo‘yicha milliy institutlarga bag‘ishlangan birinchi xalqaro seminar bu borada qo‘yilgan katta amaliy qadam bo‘ldi. Ushbu xalqaro seminarda 32 mamlakat vakillari ishtirok etdi va unda milliy institutlarning maqomi va funksiyalariga oid qator tavsiyalar va tamoyillar ishlab chiqildi[4].

20-dekabrda esa, 48/134-sonli rezolyutsiya bilan Bosh Assambleya tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va Parij tamoyillari nomini olgan[5].

Butunjahon konferensiyasi har bir davlat inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish ishlarini yaxshilash borasidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladigan milliy harakat dasturini ishlab chiqish masalasini ko‘rib chiqishni tavsiya qilgan. Konferensiya hukumatlarni milliy institutlarning tuzilishini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashga da’vat qilgan.

Parij tamoyillariga ko‘ra, milliy institutlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- inson huquqlarini himoya qilish borasida keng vakolatlarga ega;
- faoliyati qonun hujjatlarida mustahkamlangan;
- davlat organlaridan mustaqil;
- muassasa tarkibida keng vakillikning ta’minlanganligi;
- fuqarolarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish mumkinligi[6].

Ta’kidlash lozimki, mazkur institutlar belgilangan xalqaro standartlarga mos bo‘lishi lozim. Parij tamoyillariga muvofiq, milliy institutlar quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- davlat hokimiyati organlariga inson huquqlariga doir masalalar bo‘yicha fikr-mulohazalar, tavsiyalar, takliflar taqdim qilish;

[3] Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002. – С. 119.; Общая теория прав человека. – М.НОРМА, 1996.

[4] Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки. № 4, ООН, Нью-Йорк и Женева, 1995.

[5] Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профес-сиональной подготовки. № 4, ООН, Нью-Йорк и Женева, 1995. – С. 22.

[6] Inson huquqlari:darslik/A.R.Mo‘minov. M.A.Tillabayev;mas’ul muharrir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.:Adolat.2013. – 258 - b.

- milliy qonunchilikni xalqaro talablarga moslashtirish jarayoniga ko‘maklashish va rag‘batlantirish;
- xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishga ko‘maklashish hamda xalqaro majburiyatlarning bajarilishini kuzatib borish;
- xalqaro konvensiyalarning bajarilishi bo‘yicha xalqaro nazorat organlariga milliy ma’ruzalar tayyorlashga ko‘maklashish;
- inson huquqlari sohasida faoliyat yurituvchi BMT organlari, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlarning milliy institutlari bilan hamkorlik qilish;
- inson huquqlarini o‘qitish va ularni tadqiq etishga doir dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ularni amalga oshirishda qatnashish;
- inson huquqlariga oid axborotlarni tarqatish va barcha shakldagi kamsitishlarga qarshi kurashish[7].

“Inson huquqlari bo‘yicha milliy institut” atamasi ostida hukumat tomonidan konstitutsiya yoki qonun, yo dekretga muvofiq tashkil etilib, vazifasi inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishdan iborat bo‘lgan organ tushuniladi. B. Burdekin qayd etganidek, “milliy institut davlat va fuqarolik jamiyatining o‘rtasida joylashgan bo‘lib, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning foydali mexanizmi hisoblanadi. Ushbu ta’rifga ombudsmanlar va inson huquqlari bo‘yicha komissiyalarning ayrim turlarini ham qo‘shgan holda turli xil institutsional tuzilmalar mos tushadi” [8].

“Milliy institut” tushunchasining turli ta’riflariga suyangan holda, uni quyidagicha shakllantirish mumkin: inson huquqlari bo‘yicha milliy institut – Parij tamoyillarini hisobga olgan holda, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini ta’minlash, rag‘batlantirish va himoya qilish maqsadlarida Konstitutsiya yoki qonunga muvofiq ta’sis etilgan mustaqil organ hisoblanadi[9].

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov tizimining ajralmas bo‘lagi hisoblanib, O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha Vakili(Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, Bolalar ombudsmani va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Biznes ombudsman institutlari kiradi.

[7] Inson huquqlari:darslik/A.R.Mo‘minov. M.A.Tillabayev;mas’ul muharrir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.:Adolat.2013. – 259 - b.

[8] Burdekin B., Gallagher A. The United Nations and National Human Rights Institutions. // International human rights monitoring mechanisms. /Edited by G.Alfredsson... Martinius Nijhoff Publishers. 2001. – P. 816.

[9] Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING INSON HUQUQLARI BO‘YICHA VAKILI (OMBUDSMAN)

Huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari. Ombudsman instituti O‘zbekistonda dastlab 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan 392-I-sonli Qonun bilan joriy etilgan[10], qonunning yangi tahriri esa 2004-yil 27-avgustda (669-II-son) tasdiqlangan[11]. 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi munosabati bilan institutning huquqiy asoslari to‘liq yangilandi: 2024-yil 15-noyabrda O‘RQ-1002-sonli yangi Qonun imzolandi. U Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 17-sentyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 23-oktyabrda ma’qullangan va 2024-yil 18-noyabrdan kuchga kirgan. Qonun 8 bob va 57 moddadan iborat bo‘lib, avvalgi tahrir o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilgan.

Huquqiy maqomi. Qonunga ko‘ra Ombudsman mansabdor shaxs bo‘lib, davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi. Qonunda u inson huquqlari bo‘yicha milliy institut sifatida tan olingan, o‘z faoliyatini tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda olib borishi belgilangan. Faoliyatning asosiy prinsiplari: qonuniylik, mustaqillik, adolatlilik, insonparvarlik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xolislik va ochiqlik.

Saylanishi, vakolat muddati va kafolatlari. Ombudsman lavozimiga saylanish kuni o‘ttiz yoshga to‘lgan, kamida besh yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro saylanishi mumkin. Nomzod Oliy Majlis palatalari ko‘rib chiqishi uchun Prezident tomonidan kiritiladi, Ombudsman Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan besh yil muddatga saylanadi; bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylana olmaydi. Ombudsman siyosiy partiya a’zoligini to‘xtatib turishi yoki tugatishi, ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanmasligi shart. Uni muddatidan ilgari ozod qilish asoslari qonunda taxminiy emas, balki to‘liq sanab o‘tilgan. Ombudsman daxlsizlik huquqidan foydalanadi: u Oliy Majlis palatalarining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas, unga nisbatan jinoyat ishini faqat Bosh prokuror qo‘zg‘atishi mumkin.

[10] O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi 392-I-sonli “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 102-modda.

[11] O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi 669-II-sonli “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni (qonunning yangi tahriri).

Vazifalari va huquqlari. Ombudsmanning asosiy vazifalari inson huquqlari va erkinliklariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, murojaatlarni ko‘rib chiqish, qonunchilikning amaliy ijrosini o‘rganish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda qiynoqqa solishning oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Uning huquqlari qatoriga tashkilotlarga moneliksiz kirish, hujjat va ma’lumotlarni so‘rash, saqlanayotgan shaxslar bilan xoli uchrashish, Prezident, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga maxsus ma’ruzalar taqdim etish, fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab sudlarga davlat bojisiz murojaat etish kiradi.

Ta’sir choralari. Yangi Qonunning o‘ziga xos jihati shundaki, ta’sir choralari alohida bobda (4-bob), har biri alohida moddada tartibga solingan: ogohlantirish, taqdimnoma (ko‘rib chiqilishi majburiy; qilingan choralar haqida, boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, o‘n besh kun ichida yozma xabar berilishi shart), iltimosnoma (aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish haqida) va talabnoma (qiynoqqa solish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha, o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi shart). Shikoyat bo‘yicha Ombudsman xulosa yuboradi, uni olgan tashkilot bir oydan kechiktirmay asoslantirilgan javob berishi shart.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish. Shikoyatlar og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda berilishi mumkin, ular uchun davlat boji undirilmaydi. Shikoyat huquq buzilganligi ma’lum bo‘lgan paytdan yoki oxirgi qaror qabul qilingan paytdan boshlab bir yil ichida ko‘rib chiqiladi. Sud vakolatiga kiradigan masalalar va anonim murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi. Ozodlikdan mahrum etilganlar murojaatlarini senzurasiz, murojaatlar qutisi orqali yuborishi mumkin.

Hisobdorligi. Ombudsman o‘z faoliyati to‘g‘risida har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay Oliy Majlis palatalariga ma’ruza taqdim etadi, bu ma’ruzada qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ham aks ettiriladi. Shuningdek, u maxsus ma’ruzalar va xalqaro majburiyatlarning bajarilishi bo‘yicha muqobil ma’ruzalar tayyorlash huquqiga ega. Faoliyatning ochiqligi rasmiy veb-sayt, ommaviy axborot vositalari va o‘z matbuot organini ta’sis etish imkoniyati orqali ta’minlanadi.

Yangi vakolatlar. 2024-yilgi Qonunning muhim yangiliklari: Ombudsmanga qonunchilik tashabbusi huquqining berilishi (u qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishi mumkin), Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud bilan hamkorlikning belgilanishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillar faoliyatining (ular Ombudsman tomonidan tayinlanadi va unga hisobdor) qonuniy mustahkamlanishi, shuningdek qiynoqqa solish hollarining oldini olish bo‘yicha alohida bobning kiritilishi. Bu bobga ko‘ra Ombudsman, uning o‘rinbosari va mintaqaviy vakillar harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga istalgan vaqtda, oldindan xabar bermasdan monitoring tashriflarini amalga oshiradi, uning huzurida esa jamoatchilik guruhlari tuziladi (ularning kamida qirq foizini ayollar tashkil etishi shart). Ombudsman faoliyati Ombudsman Devoni tomonidan ta’minlanadi, moliyalashtirish Davlat budjetida alohida satrda nazarda tutiladi.

Baho. Parij tamoyillari nuqtai nazaridan qonun vakolatlar doirasining kengligi, mustaqillik va daxlsizlik kafolatlari, alohida byudjet satri hamda fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik mexanizmlari jihatidan muhim qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, nomzodni Prezident tomonidan kiritilishi va tanlov jarayonida plyuralizm hamda shaffoflikni ta’minlovchi qo‘shimcha

mexanizmlarning batafsil belgilanmaganligi xalqaro standartlar nuqtai nazaridan keyingi takomillashtirishni talab etuvchi jihat sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING BOLA HUQUQLARI BO‘YICHA VAKILI (BOLALAR OMBUDSMANI)

Huquqiy asoslari. Bolalar ombudsmani instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-sonli “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tashkil etilgan[12]. Institut faoliyatini tashkil etish masalalari 2021-yil 28-oktyabrdagi 1445-IV-sonli qaror bilan, Kotibiyat tashkil etilishi orqali belgilab berilgan. Keyinchalik institut faoliyati qonun darajasida tartibga solindi: 2024-yil 29-fevralda O‘RQ-917-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. U Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda ma’qullangan va 2024-yil 2-martdan kuchga kirgan. Qonun 7 bob va 45 moddadan iborat[13]. Qonunga 2026-yil 14-oktyabrdagi O‘RQ-1180-sonli Qonun bilan, jumladan 12, 20 va 27-moddalarga, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zgartishlar kiritilgan[14].

Huquqiy maqomi. Bolalar ombudsmani mansabdor shaxs bo‘lib, bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi. U o‘z vakolatlarini mustaqil ravishda, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmagan holda amalga oshiradi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdor. Faoliyatning asosiy prinsiplari Ombudsman uchun belgilanganlarga o‘xshash bo‘lib, ularga qo‘shimcha ravishda bola huquqlarining ustuvorligi prinsipi kiritilgan. Bola huquqlari bo‘yicha vakil Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan besh yil muddatga saylanadi; nomzod Prezident tomonidan kiritiladi. Lavozimga nomzodga qo‘yiladigan yosh talabi yigirma besh yosh (Ombudsman uchun o‘ttiz

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-sonli “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

[13] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ-917-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda ma’qullangan; kuchga kirgan sana: 2024-yil 2-mart).

[14] O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktyabrdagi O‘RQ-1180-sonli “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. Shuningdek qarang: 2024-yil 14-noyabrdagi O‘RQ-996-sonli “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 9-modda.

yosh), shuningdek kamida besh yil O‘zbekistonda muqim yashash sharti belgilangan. Vakil daxlsizlik huquqidan foydalanadi, unga nisbatan jinoyat ishini faqat Bosh prokuror qo‘zg‘atishi mumkin.

Vazifalari va huquqlari. Asosiy vazifalar: bola huquqlariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish, murojaatlarni ko‘rib chiqish, bola huquqlarini ta’minlash holatini monitoring qilish, bola huquqlari buzilishining oldini olish va buzilgan huquqlarni tiklashga ko‘maklashish, nogironligi bo‘lgan bolalar, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarning ijtimoiy moslashuviga hamda uy-joy bilan ta’minlanishiga ko‘maklashish, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etish. Vakil davlat organlaridan ma’lumot so‘rash, ularning ma’lumotlar bazalaridan foydalanish, ogohlantirish va taqdimnomalar kiritish, iltimosnomalar yuborish, sudlarga davlat bojisiz murojaat etish, sud jarayonlarida, shu jumladan yopiq majlislarda, qonunda belgilangan hollarda ishtirok etish, ta’lim, tarbiya va tibbiyot muassasalariga, ijtimoiy-huquqiy yordam markazlariga, tergov hibsxonalari va tarbiya koloniyalariga moneliksiz kirish huquqiga ega.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish. Bolalar ombudsmanining muhim xususiyati shundaki, bolalar o‘z huquqlari yuzasidan bevosita shikoyat berishi mumkin va bola to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmaganligi sababli uning shikoyatini ko‘rib chiqmasdan qoldirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ijtimoiy-huquqiy yordam markazlari, tergov hibsxonalari va tarbiya koloniyalaridagi bolalar murojaatlarni senzurasiz va soni cheklanmagan holda yuborishi mumkin. Shikoyat uchun davlat boji undirilmaydi, shikoyat bir yil ichida ko‘rib chiqiladi. Vakilning xulosasini olgan tashkilot yoki mansabdor shaxs uni ko‘rib chiqib, bir oydan kechiktirmay asoslantirilgan javob yuborishi shart. Qonunning 20-moddasiga ko‘ra, vakil bola o‘z ixtiyori bilan chiqib keta olmaydigan joylarga muntazam kirib turish orqali bolaga nisbatan qiynoqqa solish va shafqatsiz muomala hollarining oldini olish choralarini ko‘radi, bu faoliyatga ko‘maklashish uchun fuqarolik jamiyati vakillari va turli sohalardagi mutaxassislardan iborat maxsus ekspert guruhi tuzadi.

Hisobdorligi va hamkorligi. Vakil har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay Oliy Majlis palatalariga bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi holati haqida ma’ruza taqdim etadi; zarur bo‘lganda maxsus ma’ruzalar kiritadi. U Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega, Oliy sud Plenumi va Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya majlislarida ishtirok etadi, Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi. Bolalarga nisbatan jinoyatlar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakilni uch kun ichida, sud esa hukm haqida besh kun ichida yozma xabardor qilishi shart; vakil bunday ishlar materiallari bilan tanishish va hukm ustidan protest keltirish haqida prokurorga iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillar vakil tomonidan tayinlanadi va jamoatchilik asosida ishlaydi; ular har chorakda vakilga axborot taqdim etadi. Vakil faoliyati Kotibiyat tomonidan ta’minlanadi (davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs), moliyalashtirish Davlat budjeti hisobidan alohida satrda amalga oshiriladi.

Baho. Qonun bola manfaatlarining ustuvorligi, bolalarning o‘zi murojaat qilish imkoniyati, to‘ldirilgan monitoring vakolatlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan majburiy axborot almashinuvi orqali ixtisoslashgan milliy institutning samarali modelini yaratgan. Shu bilan birga,

mintaqaviy vakillarning jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi ularning resurs va mustaqillik imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH BO‘YICHA VAKIL (BIZNES OMBUDSMAN)

Huquqiy asoslari. Biznes ombudsman instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PF-5037-sonli Farmoni bilan ta’sis etilgan[15]. Institut faoliyati 2017-yil 29-avgustdagi O‘RQ-440-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 14-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2017-yil 24-avgustda ma’qullangan, 2017-yil 30-avgustdan kuchga kirgan. Boshqa ikki qonundan farqli o‘laroq, u boblarga bo‘linmagan va 29 ta moddadan iborat[16]. Qonunga 2019-yil 12-noyabrdagi O‘RQ-583, 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683, 2022-yil 11-apreldagi O‘RQ-762, 2023-yil 20-yanvardagi O‘RQ-815 va 2024-yil 7-fevraldagi O‘RQ-905-sonli qonunlar bilan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan. 2019-yil 15-martdagi PF-5690-sonli Farmon institut tuzilmasi va Vakil Devonini takomillashtirishning muhim bosqichi bo‘ldi.

Huquqiy maqomi. Vakil mansabdor shaxs bo‘lib, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini, mazkur huquqlar va manfaatlarga davlat organlari tomonidan rioya etilishini ta’minlaydi. Ombudsman va Bolalar ombudsmanidan farqli ravishda, u Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, o‘z faoliyatida Prezidentga hisobot beradi, vakolatlarini esa davlat organlariga bo‘ysunmagan holda mustaqil amalga oshiradi. Tayinlanish kuni o‘ttiz yoshga to‘lgan, oliy ma’lumotli, davlat tilini biladigan, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish sohasida yoki tadbirkorlik faoliyatida tajribaga ega fuqaro tayinlanishi mumkin. Vakil daxlsizlik huquqidan foydalanadi, biroq u Prezidentning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas; jinoyat ishi faqat Bosh prokuror tomonidan qo‘zg‘atiladi. Vakilning ikki nafar o‘rinbosari Prezident tomonidan tayinlanadi.

Vazifalari. Faoliyatning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari: tadbirkorlik sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; davlat organlari tomonidan

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PF-5037-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’sis etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

[16] O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O‘RQ-440-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 35-son, 915-modda.

tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat; tekshiruvlar paytida tadbirkorlarni huquqiy qo‘llab-quvvatlash; tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va ularning qonuniyligi ustidan nazorat; tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari bo‘yicha qonunchilikning amalda ro‘yobga chiqarilishini o‘rganish; normativ hujjatlarning tadbirkorlikka ta’sirini baholash; tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobini va majburiy talablarning yagona elektron reyestrini yuritish; qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

Huquqlari va ta’sir choralari. Vakil davlat organlari tomonidan qonunchilikning ijrosini o‘rganish, tekshiruvlarning qonuniyligi monitoringini amalga oshirish, ogohlantirish e’lon qilish, bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish (qilingan choralar haqida o‘n besh kun ichida xabar berilishi shart), sudlarga davlat bojisiz murojaat etish, davlat daromadiga undirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha ijroni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish haqida ariza berish, tadbirkorlik sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va hukm qilingan tadbirkorlar bilan uchrashish uchun qamoqda saqlash joylariga moneliksiz kirish, shuningdek ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish huquqiga ega. Ma’muriy bayonnoma tuzish vakolati Vakil Devoni xodimlariga ham berilgan, bu institutni nafaqat tavsiya beruvchi, balki ma’muriy-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llovchi organga yaqinlashtiradi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish. Vakil tadbirkorlik subyektlarining o‘z huquqlarini buzayotgan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarini ko‘rib chiqadi. Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy nizolar, tadbirkorlik bilan bog‘liq bo‘lmagan nizolar hamda sud, tezkor-qidiruv, tergov, surishtiruv va jazoni ijro etish organlarining vakolatiga kiruvchi masalalar uning ko‘rib chiqish doirasiga kirmaydi. Shikoyat bir yil ichida beriladi, davlat boji undirilmaydi, davlat organlari vakilning so‘roviga o‘n kun ichida javob berishi shart. Vakil xulosasida ishni nihoyasiga yetkazish, qarorni o‘zgartirish yoki bekor qilish, qarorni asoslantirish yoki qo‘shimcha qaror qabul qilish tavsiya etilishi mumkin.

Hisobdorligi va tashkiliy ta’minoti. Vakil davlat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi holatiga doir axborotni Prezidentga tizimli asosda taqdim etadi. Vakil faoliyatini yuridik shaxs huquqlariga ega davlat organi bo‘lgan Vakil Devoni ta’minlaydi; Vakilning maqomi, mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport ta’minoti bo‘yicha Prezident maslahatchisining o‘rinbosariga tenglashtirilgan. Faoliyat Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Vakil faoliyatiga to‘sqinlik qilish ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi, hamda xalqaro hamkorlik, nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qonunda belgilangan.

Baho. Biznes ombudsman ixtisoslashgan, Prezident huzuridagi institut sifatida klassik “Parij tamoyillari” modelidan farq qiladi: uning vakolat doirasi tadbirkorlarning huquqlari bilan cheklangan, hisobdorligi esa parlamentga emas, Prezidentga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, amaliy ta’sir vositalari (ma’muriy bayonnomalar, sudga davlat bojisiz murojaat, tekshiruvlar monitoringi, majburiy talablar reyestri) jihatidan bu institut milliy institutlar ichida eng ta’sirchan mexanizmlardan biri hisoblanadi.

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

Huquqiy asoslari. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi PF-1611-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tuzilgan[17]. Farmonga ko‘ra Markaz yuridik shaxs bo‘lib, unga Prezident farmoni bilan tayinlanadigan direktor rahbarlik qiladi. Markaz faoliyatini tashkil etish masalalari Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi 399-sonli qarori bilan Nizom tasdiqlanishi orqali belgilangan. Markaz maqomi va faoliyati yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi PQ-4056-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan sezilarli darajada kengaytirilgan[18]. Markazning moddiy-texnika ta’minoti 2022-yil 25-martdagi PQ-180-sonli qaror bilan yanada yaxshilangan.

Huquqiy maqomining o‘ziga xosligi. Ombudsman, Bolalar ombudsmani va Biznes ombudsmandan farqli o‘laroq, Markaz faoliyati alohida qonun bilan emas, Prezident farmoni va qarorlari hamda hukumat qarori bilan tartibga solinadi; shu sababli unga nisbatan “bob” va “modda” tuzilmasidagi yagona qonun mavjud emas. Markaz davlatga qarashli idoralararo tahlil, maslahat va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Bu uning mustaqil, shikoyat ko‘rib chiquvchi institutdan ko‘ra, davlat siyosatini shakllantirish va xalqaro majburiyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish funksiyasiga ega ekanligini bildiradi.

Asosiy vazifa va funksiyalari. 2018-yilgi qarorga muvofiq Markaz inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarish bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini, milliy ma’ruzalar tayyorlanishini hamda xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar tavsiyalarining bajarilishini muvofiqlashtiradi. Markaz davlat siyosatini samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi; inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarni qo‘llash masalalarida O‘zbekistonning yagona nuqtai nazarini shakllantirishga ko‘maklashadi; BMT va boshqa organlarning tavsiyalarini bajarish bo‘yicha milliy harakat rejalarini amalga oshirish uslubiyotini ishlab chiqadi va monitoringini yuritadi; normativ-huquqiy hujjatlarning doimiy tahlilini amalga oshiradi va ularni xalqaro shartnomalar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi; davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlariga maslahat beradi; aholining huquqiy

[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi PF-1611-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi PQ-4056-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.

savodxonligini oshirishga ko‘maklashadi, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazadi va nashriyot faoliyatini yuritadi; xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar milliy institutlari bilan hamkorlik qiladi[19].

Milliy strategiya doirasidagi roli. Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirishda Markazning muvofiqlashtiruvchi roli alohida ajratib ko‘rsatilgan: “Yo‘l xaritasi”dagi mas’ul ijrochilar o‘zlariga yuklatilgan vazifalar ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oyning 5-sanasigacha Markazga taqdim etadi. Shu tariqa Markaz inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining ijrosini tizimli kuzatib boruvchi organga aylangan[20].

Hisobdorligi va baho. Markaz direktori Prezident farmoni bilan tayinlanishi va Markazning davlat organlari tizimidagi idoralararo muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritishi uning hisobdorlik doirasini ijro etuvchi hokimiyat bilan bog‘laydi. Shu sababli Markaz Parij tamoyillari ma’nosidagi mustaqil institut emas; uning qiymati davlat organlarining xalqaro majburiyatlarni bajarishdagi harakatlarini muvofiqlashtirish, milliy ma’ruzalarni tayyorlash, ilmiy-tahliliy va ta’lim faoliyati hamda parlament va ijro hokimiyati ombudsman institutlari bilan uyg‘unlikni ta’minlashdadir. Bu o‘rinda Ombudsman to‘g‘risidagi Qonunning 38-moddasi Ombudsmanning Bolalar ombudsmani, Biznes ombudsman va Milliy markaz bilan hamkorligini alohida belgilab qo‘yganini ta’kidlash lozim.

INSTITUT	ASOSIY HUQUQIY HUJJAT	QABUL QILINGAN / KUCHGA KIRGAN	TUZILISHI	TAYINLASH TARTIBI	HISOBDORLIK
OMBUDSMAN	O‘RQ-1002-son Qonun	17.09.2024 / 18.11.2024	8 bob, 57 modda	Palatalar tomonidan 5 yilga saylanadi, nomzodni Prezident kiritadi	Oliy Majlis palatalari
BOLALAR OMBUDSMANI	O‘RQ-917-son Qonun	15.12.2023 / 02.03.2024	7 bob, 45 modda	Palatalar tomonidan 5 yilga saylanadi, nomzodni Prezident kiritadi	Oliy Majlis palatalari

[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-martdagi PQ-180-sonli “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy-texnika ta’minotini yanada yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori.

[20] Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Prezident Farmoni (2026-yil 17-fevraldagi PF-27-sonli Farmon tahririda).

INSTITUT	ASOSIY HUQUQIY HUJJAT	QABUL QILINGAN / KUCHGA KIRGAN	TUZILISHI	TAYINLASH TARTIBI	HISOBDORLIK
BIZNES OMBUDSMAN	O‘RQ-440-son Qonun	14.08.2017 / 30.08.2017	boblarga bo‘linmagan, 29 modda	Prezident tayinlaydi	Prezident
MILLIY MARKAZ	PF-1611-son Farmon (31.10.1996)	—	alohida qonun yo‘q	Direktorni Prezident farmoni bilan tayinlaydi	Ijro etuvchi hokimiyat tizimi

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, milliy institutlar tizimi uch xil modelni qamrab oladi: parlament nazoratiga asoslangan umumiy (Ombudsman) va ixtisoslashgan (Bolalar ombudsmani) institutlar: Prezident huzuridagi ixtisoslashgan institut (Biznes ombudsman) hamda davlat idoralararo muvofiqlashtiruvchi organi (Milliy markaz). Ombudsman va Bolalar ombudsmanining qonunlari tuzilishi, himoya vositalari va kafolatlari jihatidan o‘xshash, shu sababli bu ikki institut Parij tamoyillari mezonlariga eng yaqin turadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar tizimi izchil shakllanayotganini, ularning huquqiy asoslari esa so‘nggi yillarda sezilarli darajada mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Xususan:

1. Ombudsman instituti 1997-yildan faoliyat yuritib kelmoqda, uning huquqiy asosi 2024-yil 15-noyabrdagi O‘RQ-1002-sonli yangi Qonun (8 bob, 57 modda) bilan yangilandi. Yangi Qonun Ombudsmanga qonunchilik tashabbusi huquqini berdi, ta’sir choralarini alohida bobda sanab o‘tdi, mintaqaviy vakillar va qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha mexanizmlarni kuchaytirdi.

2. Bolalar ombudsmani 2021-yilda tashkil etilgan va 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ-917-sonli Qonun (7 bob, 45 modda) bilan qonuniy asosga ega bo‘ldi. Institutning o‘ziga xosligi bolalarning bevosita murojaat qilish imkoniyati, bola manfaatlarining ustuvorligi hamda bolalar o‘z ixtiyori bilan chiqib keta olmaydigan joylarda monitoring vakolatida namoyon bo‘ladi; 2026-yildagi o‘zgartishlar bu vakolatlarni yanada mustahkamladi.

3. Biznes ombudsman 2017-yildan faoliyat yuritadi, uning faoliyati O‘RQ-440-sonli Qonun (29 modda) bilan tartibga solingan. U Prezident huzuridagi institut sifatida tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishning eng ta’sirchan mexanizmlariga ega, biroq uning hisobdorligi parlamentga emas, Prezidentga yo‘naltirilgan.

4. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz 1996-yildan beri faoliyat yuritadi. Uning faoliyati alohida qonun bilan emas, balki Prezident farmoni va qarorlari bilan tartibga solinadi; Markaz asosan xalqaro majburiyatlarni bajarish, milliy ma’ruzalar tayyorlash va Milliy strategiyaning ijrosini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi.

Shu bilan birga, quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish istiqbollari mavjud: Ombudsman va Bolalar ombudsmanini saylash jarayonida nomzodlarni tanlashning shaffofligi va plyuralizmini ta’minlovchi qo‘shimcha mexanizmlarni belgilash; Milliy markaz uchun faoliyatni tartibga soluvchi alohida qonunni qabul qilish masalasini ko‘rib chiqish; Bolalar ombudsmanining mintaqaviy vakillari faoliyatining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash; milliy institutlar o‘rtasida hamkorlik va axborot almashinuvini yanada yaxlit tizimga keltirish hamda ularning Parij tamoyillariga muvofiqligini xalqaro tan olish (akkreditatsiya) amaliyoti doirasida muntazam baholab borish.

Umuman olganda, milliy institutlar O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning nosudlov tizimini to‘ldirib, fuqarolar va davlat organlari o‘rtasida huquqiy aloqani mustahkamlamoqda, xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va amaliyotga joriy etishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Топорнин Б.Н. Права человека и разделение властей //Права человека: время трудных решений. М., 1991.
2. Inson huquqlari:darslik/A.R.Mo‘minov. M.A.Tillabayev;mas’ul muharrir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.:Adolat.2013.
3. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002. – С. 119.; Общая теория прав человека. – М.НОРМА, 1996.
4. Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки. № 4, ООН, Нью-Йорк и Женева, 1995.
5. Burdekin B., Gallagher A. The United Nations and National Human Rights Institutions. // International human rights monitoring mechanisms. /Edited by G.Alfredsson... Martinius Nijhoff Publishers. 2001.
6. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-sonli “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ-917-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda ma’qullangan; kuchga kirgan sana: 2024-yil 2-mart).
9. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktyabrdagi O‘RQ-1180-sonli “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. Shuningdek qarang: 2024-yil 14-noyabrdagi O‘RQ-996-sonli “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PF-5037-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’sis etish to‘g‘risida”gi Farmoni.